

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
ТОМ 4, НОМЕР 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»
VOLUME 4, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-5>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1	Svetlana Safarova Satimovna. XORAZM VOHASINING QUYI VOLGA VA JANUBIY SIBIR HUDUDLARI BILAN MADANIY ALOQALARINING TARIXIY MANBALARDA VA TADQIQOTLARDA AKS ETISHI.....	7
2	Yaqubova Shahribonu Davron qizi. HUQUQIY HUIJATLAR TARJIMASIDA ANIQLIK MASALASI.....	13
3	Matyakubov Hakimboy Xamidjonovich. OLAMNING ONOMASTIK MANZARASINI TADQIQ ETISHDA MAKON NOMLARINING STRATIGRAFIK (QATLAMLANISH) TABIATINI ANGLASH.....	15
4	Jabborova Dilnavoz Allaberganovna. MUNIS IJODIDA AN'ANAVIYLIK VA NOVATORLIK.....	19
5	Ёриева Зарифа Хамраевна. ЖОН СТЕЙНБЕК ВА УЛУҒБЕК ХАМДАМ НАСРИДА ЗАМОН-МАКОН МОДЕЛИ ВА ШАХС РУҲИЯТИНИНГ КЕНГҚАМРОВЛИ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ.....	23
6	Narziyeva Inobat Zoirovna. O'ZBEK ADABIYOTIDA KICHIK YOSHDAGI BOLALAR OBRAZINING PSIXOLOGIK TALQINI.....	27
7	Karimova Shaxnoza Karimovna. Atoyeva Zarinabonu Yigitali qizi. MODERNISTIK SHE'RIYATDA ANAFORANING BADIY VAZIFALARI.....	31
8	Алламуратова Гулсанем Жалгасбаевна. ЯДЕРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ИДИОСТИЛЯ: КОРПУСНЫЙ АНАЛИЗ ПОЭТИКИ БАЛЬМОНТА И БРЮСОБА.....	36
9	Шамсутдинова Галия Шамилевна. КЛАССИФИКАЦИЯ НАЗВАНИЙ ЖИЛИЩ В ХОРЕЗМЕ.....	42
10	Yakubova Matluba Tajibayevna. NEMIS - O'ZBEK MAQOLLARINING TARJIMA MUAMMOLARI VA EKVIVALENTLIK MASALASI.....	46

TARIX

1	Babadjanov B. "O'ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARINING GENEALOGIYASI VA SIYOSIY-G'OYAVIY ASOSLARI".....	51
2	Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li XIVA XONLIGI QOZILIK HUIJATLARIDA YER OLDI-SOTDISI VA VAQF IJARA MUNOSABATLARINING HUQUQIY RASMIYLASHTIRILISHI.....	55
3	Atayeva Dilfuza Pulatovna. O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASI ORQALI XOTIN-QIZLARNING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISH.....	57
4	Babadjanov B. "O'ZBEKISTON "MILLIY TIKLANISH" DEMOKRATIK PARTIYASINING SIYOSIY STRATEGIYASI".....	61
5	Yusupov Axmedjon Shonazarovich. OROLBO'YI ILK SAK QABILALARINING ETNO-MADANIY GENEZISI YUZASIDAN BA'ZI MULOHAZALAR.....	65
6	Otaxonova Intizor Norimboy qizi. URGANCH DAVLAT UNIVERSITETIDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI.....	71
7	Nurmetov Ismoil Alimbayevich. O'ZBEKISTONDA TABIIY HUDUDLAR MUHOFAZASI.....	75
8	Садиков. А. И. ҚОРАҚАЛПОҚ ХУДУДЛАРИДА АНЪАНАВИЙ МАКТАБ ВА МАДРАСАЛАР ФАОЛИЯТИ (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	82
9	Саидов Шавкат Жумабаевич. ХХСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....	88
10	Ermanov Alisher Bekmuratovich. TOTALITAR TUZUM DAVRIDA QORAQALPOQ OXUNLARI FAOLIYATI.....	94

PEDAGOGIKA

- 1 **Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna.** PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI..... 97
- 2 **Radjapova Feruza Abdullayevna.** ADAPTIV SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK TASNIFI..... 101
- 3 **Egamova Anbarjon Atanazarovna.** KONSTRUKTIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSIYA VA EMOTSIONAL-INTELLEKTUAL OMILLARNING O'RNI..... 106
- 4 **Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li.** AKADEMIK ERKINLIK SHAROITIDA BO'LAJAK PEDAGOG KADRLARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARI (XORIJIIY UNIVERSITETLAR TAJRIBASI MISOLIDA).... 111
- 5 **Atajanov Adilbek Yuldashevich.** OTM PEDAGOG XODIMLARINING ISH O'RNIDAGI FUNKSIONAL TAYYORGARLIGINI OPTIMALLASHTIRISHDA WFSIP PEDAGOGIK MODELINING NAZORATLI SINOV NATIJALARI..... 117
- 6 **Kurbonboyev Xudoyshukur Maqsudboy o'g'li.** OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI KROSSFIT MASHG'ULOTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI: DOLZARBLIK, O'RGANILGANLIK DARAJASI VA PEDAGOGIK YECHIMLAR..... 125

PSIXOLOGIYA

- 1 **Kalandarova Madina Baxadirovna.** TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDA AYOLLARNING ONALIKKA MOSLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR..... 133
- 2 **Xudoyberganov Doniyorbek Yangiboy o'g'li.** ZAMONAVIY TALABALAR HAYOTIY STRATEGIYALARI VA COPING-XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK..... 138

IQTISOD

- 1 **Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna. Raximov G'anisher Alisher o'g'li.** SOLIQQA SOLISH TIZIMLARINING XALQARO TASNIFI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI..... 143
- 2 **Maxmudov Jasurbek Ergashevich.** INVESTITSION SALOHIYAT TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNING HUDUDIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI..... 147
- 3 **Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi. Zakirova Gulnoza Qudratovna.** O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDA YOSHLAR BANDLIGI: STRUKTURAVIY NOMUTANOSIBLIKLAR VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYALARI..... 153
- 4 **Zaripov Xurshid Zakir o'g'li. Ruzmetova Gulira'no Atabekovna.** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA MUAMMOLARI..... 157
- 5 **O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich. Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich. Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich.** O'ZBEKISTONDA RAQAMLI FISKAL BOSHQARUV: DAVLAT BUDJETI SHAFFOFLIGI VA MOLIYAVIY NAZORAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI..... 163
- 6 **Pardayeva Ozoda Mamayunusovna.** TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR..... 168

Nurmetov Ismoil Alimbayevich,

Tarix fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti, Urganch, O'zbekiston

O'ZBEKISTONDA TABIIY HUDUDLAR MUHOFAZASI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20707504>

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining shakllanishi, huquqiy asoslari hamda sohadagi zamonaviy tendensiyalar tahlil etiladi. Mustaqillikdan so'ng mamlakatda ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida qo'riqxonalar, milliy bog'lar, biosfera rezervatlari hamda boshqa maxsus hududlarni tashkil etish bo'yicha mustahkam huquqiy baza yaratildi. So'nggi yillarda "Yashil makon" dasturi doirasida millionlab daraxtlarning ekilishi, yangi milliy bog'lar va qo'riqxonalar tashkil etilmoqda. O'zbekiston YuNESKO va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlikda bioxilma-xillikni asrash, cho'llanishga qarshi kurashish hamda transchegaraviy muhofaza etiladigan hududlarni tashkil etish jarayonlarida faol ishtirok etmoqda. Orolbo'yi hududida ekotizimlarni tiklash va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan qator xalqaro loyihalar amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, tabiiy hududlar, qo'riqxonalar, milliy bog'lar, biosfera rezervatlari, bioxilma-xillik, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, huquqiy asoslar, ekologik siyosat, xalqaro hamkorlik, YuNESKO, Orolbo'yi, Yashil makon, tabiiy meros.

Nurmetov Ismoil Alimbayevich,

Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Urgench State University, Urgench, Uzbekistan

PROTECTION OF NATURAL AREAS IN UZBEKISTAN

Abstract. This article analyzes the formation of the system of protected natural areas in Uzbekistan, its legal foundations, and current development trends. Following independence, a solid legal framework was established to ensure ecological security and sustainable development through the creation of nature reserves, national parks, biosphere reserves, and other specially protected areas. In recent years, within the framework of the "Yashil Makon" ("Green Space") program, millions of trees have been planted, and new national parks and reserves have been established. Uzbekistan actively cooperates with UNESCO and other international organizations in biodiversity conservation, combating desertification, and the establishment of transboundary protected areas. In the Aral Sea region, a number of international projects aimed at ecosystem restoration and the development of a green economy are being implemented.

Keywords: Uzbekistan, protected areas, reserves, national parks, biosphere reserves, biodiversity, ecological security, sustainable development, legal framework, ecological policy, international cooperation, UNESCO, Aral Sea, Green Space, natural heritage.

Нурметов Исмоил Алимбаевич

доктор философии по истории (PhD), доцент
Ургенчский государственный университет, Ургенч, Узбекистан

ОХРАНА ПРИРОДНЫХ ТЕРРИТОРИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье анализируются процессы формирования системы особо охраняемых природных территорий в Узбекистане, её правовые основы и современные тенденции развития. После обретения независимости в стране была создана прочная правовая база, направленная на обеспечение экологической безопасности и устойчивого развития посредством организации заповедников, национальных парков, биосферных резерватов и других особо охраняемых территорий. В последние годы в рамках программы «Яшил макон» осуществляется масштабная посадка миллионов деревьев, а также создаются новые национальные парки и заповедники. Узбекистан активно сотрудничает с ЮНЕСКО и другими международными организациями в сфере сохранения биоразнообразия, борьбы с опустыниванием и формирования трансграничных особо охраняемых природных территорий. В Приаральском регионе реализуется ряд международных проектов, направленных на восстановление экосистем и развитие «зелёной» экономики.

Ключевые слова: Узбекистан, природные территории, заповедники, национальные парки, биосферные резерваты, биоразнообразие, экологическая безопасность, устойчивое развитие, правовые основы, экологическая политика, международное сотрудничество, ЮНЕСКО, Приаралье, «Яшил макон», природное наследие.

Kirish. O‘zbekistonda tabiiy muhitni asrash va barqaror rivojlanishni ta’minlash masalasi milliy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash hamda bioxilma-xillikni muhofaza qilish sohasida xalqaro va milliy miqyosda turli tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tabiiy hududlarni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish va uni kengaytirish O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta’minlash hamda barqaror rivojlanishga erishishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tabiatni hududiy muhofaza qilish masalalarida Xalqaro tabiatni muhofaza qilish uyushmasi (IUCN) tomonidan ishlab chiqilgan tasnif alohida ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, tabiiy hududlar qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar, tabiiy yodgorliklar, turlar yashash joylari, muhofaza etiladigan landshaftlar va boshqa toifalarga ajratiladi. Mazkur tasniflar O‘zbekiston qonunchiligida belgilangan milliy turkumlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda amaliyotga joriy etilmoqda.

O‘zbekistonda qo‘riqxonalar va milliy bog‘lar bilan bir qatorda dendrologik bog‘lar, botanika bog‘lari hamda hayvonot bog‘lari kabi maxsus maqomga ega hududlar ham faoliyat yuritadi. Ushbu hududlar nafaqat biologik xilma-xillikni saqlab qolish, balki aholining rekreatsiya ehtiyojlarini qondirish hamda ekologik-ma’rifiy xizmatlar ko‘rsatish vazifalarini ham bajaradi.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-xronologik, tizimli-tahliliy hamda qiyosiy-huquqiy usullardan foydalanildi. Manba bazasini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari, sohaviy konsepsiyalar hamda rasmiy statistik ma’lumotlar tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ekologik munosabatlar yoritilgan ilmiy adabiyotlarda ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati, ayniqsa ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik masalalari keng yoritilgan. Xususan, G. Abdullayeva, B. Alixonov, X. G‘affarov, N. Ikramova, T. Tillyayev, R. Tursunova, S. Davletov va boshqalarning ilmiy ishlarida atrof-muhitni muhofaza qilishga oid milliy mexanizmlar tahlil qilingan. Masalan, S. Davletovning ilmiy maqolalarida mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichida ekologiya va atrof-muhitni asrashga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan [4]. X. G‘affarovning ishlarida esa mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilayotgan muhim o‘zgarishlarga oid tahliliy materiallar keltirilgan.

Asosiy natijalar. O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonuni mamlakatda tabiatni muhofaza qilish va bioxilma-xillikni asrashning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Mazkur qonunda qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar, tabiat bog‘lari, tabiat yodgorliklari, biosfera rezervatlari hamda boshqa toifadagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish va ularni davlat muhofazasi ostiga olish tartibi aniq belgilangan. Shuningdek, ushbu hududlardagi yerlar, suvlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda mineral ob‘ektlarning davlat mulki hisoblanishi qonuniy jihatdan kafolatlangan.

Qonunning amaliyotga joriy etilishi mamlakatda ekologik siyosatni kuchaytirish, tabiiy resurslardan barqaror foydalanishni ta‘minlash hamda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirishga muhim zamin yaratdi. Ushbu huquqiy asos orqali O‘zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimi izchil ravishda kengayib bormoqda, yangi milliy bog‘lar va qo‘riqxonalar tashkil etilmoqda. Shu bilan birga, mazkur qonun atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro standartlarga yaqinlashish, tabiiy merosni kelajak avlodlar uchun asrab qolishga qaratilgan islohotlarning muhim huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tabiiy hududlar muhofazasini ta‘minlash sohasida qator qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining biosfera rezervatlari va milliy tabiat bog‘lari hududlarini kengaytirishga oid qarorlari, shuningdek maxsus hududlar faoliyatini tartibga soluvchi nizomlar milliy ekologik siyosatning muhim huquqiy asosini tashkil etmoqda. Ushbu hujjatlar orqali davlat qo‘riqxonalari, milliy bog‘lar, tabiat bog‘lari, tabiat yodgorliklari, buyurtma qo‘riqxonalar va boshqa maxsus hududlar davlat muhofazasi ostiga olingan.

Shu bilan birga, normativ-huquqiy hujjatlarda tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan barqaror foydalanish tartiblari aniq belgilab berilgan. Jumladan, Orolbo‘yi va bioxilma-xillikka boy hududlarda qo‘riqxonalar maqomini kengaytirish, tabiat ob‘ektlarini saqlash hamda mahalliy aholi manfaatlarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan qator qarorlar qabul qilingan. Ushbu islohotlar O‘zbekistonning xalqaro majburiyatlari bilan uyg‘un holda amalga oshirilib, tabiiy merosni kelajak avlodlar uchun asrab qolishga xizmat qilmoqda.

Ekologik siyosat Yangi O‘zbekistonning kun tartibida muhim o‘rin tutadi. Ekologiya sohasida vazirlik faoliyatini takomillashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini transformatsiya qilish, iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, daraxtlarni kesishga moratoriy joriy etish, toza “yashil” energiyani rivojlantirish, qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish, “yashil” transport infratuzilmasini rivojlantirish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tarmog‘ini kengaytirish, ekotizimlarni tiklash va bioxilma-xillikni saqlash, cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurashish, ekologik qonunchilikni xalqaro standartlar asosida unifikatsiya qilish hamda sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish borasidagi chora-tadbirlar ijobiy tendensiyalarni namoyon etmoqda.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar mamlakatda bioxilma-xillikni saqlashning asosiy institutsional poydevorini tashkil etadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yangi tasnifida Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining ekologik va iqtisodiy manfaatlar uyg‘unligini ta‘minlashga qaratilgan tavsiyalari hisobga olingan. Jumladan, kompleks (landshaft) qo‘riqxonalar, resurslarni boshqarish uchun mo‘ljallangan muhofaza etiladigan hududlar hamda tabiiy pitomniklar kabi yangi toifa va turlar joriy etildi.

Hozirgi kunda mamlakatda 7 ta davlat tabiat qo‘riqxonasi, 1 ta kompleks (landshaft) qo‘riqxonasi, 12 ta tabiiy bog‘, 1 ta milliy bog‘, 11 ta tabiiy yodgorlik, 2 ta davlat biosfera rezervati, 12 ta buyurtma qo‘riqxonasi hamda 1 ta ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigi faoliyat yuritmoqda. Ularning umumiy maydoni 6321258,21 gektarni tashkil etadi. Shuningdek, 36 ta asosiy bioxilma-xillik hududi mavjud bo‘lib, ulardan 12 tasi qisman yoki to‘liq mavjud qo‘riqlanadigan hududlar tarkibiga kiradi. Qushlarni muhofaza qilish jamiyati (UzSPB) va Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti milliy ekspertlari tomonidan hayvonot dunyosi xilma-xilligini saqlash uchun muhim bo‘lgan 10 ta asosiy bioxilma-xillik hududi ajratilgan bo‘lib, ulardan 5 tasi Bioxilma-xillikning asosiy hududlarini saqlash bo‘yicha sheriklik jamg‘armasi (CEPF) tomonidan tadqiqotlar uchun ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [1, B. 53].

Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining tasnifiga ko‘ra, I–IV toifadagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va biosfera rezervatlari maydoni 6,321 mln gektarni yoki mamlakat umumiy hududining 14,08 foizini tashkil etadi. Ushbu hududlarda O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan umurtqali hayvonlarning 102 turi (83 foiz) hamda o‘simliklarning 280 turi (89 foiz) yashaydi [1, B. 54].

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning soni va maydoni izchil ravishda ortib borayotgani kuzatilmoqda. Xususan, yangi milliy tabiat bog‘lari tashkil etildi, o‘rmon maydonlari kengaytirildi hamda “Yashil makon” dasturi doirasida millionlab daraxtlar ekish tadbirlari amalga oshirildi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi yerlarini o‘zlashtirish, suv resurslarini qayta taqsimlash, sanoat va infratuzilmaning jadal rivojlanishi kabi omillar tabiiy hududlarga muayyan bosim ko‘rsatmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (METH) tizimini rivojlantirish va ularning maydonini xalqaro hujjatlar talablariga mos darajaga yetkazishning tashkiliy-huquqiy asoslari ishlab chiqildi, shuningdek sohaning moliyaviy manbalari aniq belgilab berildi. Tizimni tartibga solishga qaratilgan qator qonun loyihalari ishlab chiqildi va takomillashtirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘nga yaqin farmon va qarorlari, shuningdek Hukumatning maxsus dasturlari qabul qilinib, ularning ijrosi natijasida beshta yangi METH tashkil etildi.

Mamlakatimizda olib borilgan ushbu yangicha yondashuvlar natijasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni 2021 yilga kelib mamlakat umumiy hududining 8,3 foiziga yetkazildi, vaholanki mazkur ko‘rsatkich 2017 yilda 5,2 foizni tashkil etgan edi [5].

O‘zbekistondagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning hozirgi holati va ushbu sohadagi zamonaviy tendensiyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda mamlakatda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning soni va maydoni barqaror sur‘atlarda ortib bormoqda. O‘rmon xo‘jaligi sohasida ham izchil islohotlar amalga oshirilmoqda, natijada mamlakatda o‘rmonzorlar maydoni sezilarli darajada kengaydi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi yerlarini o‘zlashtirish, yer usti suvlarini qayta taqsimlash, yaylov chorvachiligi, energetika va tog‘-kon sanoatining rivojlanishi, tog‘li hududlarda esa infratuzilma va aholi punktlarining kengayishi kabi antropogen omillarning hayvonot va o‘simlik dunyosi xilma-xilligiga salbiy ta‘siri saqlanib qolmoqda yoki kuchayib bormoqda [1, B. 8].

O‘zbekiston tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha qator xalqaro konvensiyalarning ishtirokchisi hisoblanadi. Mamlakat BMTning biologik xilma-xillikni saqlash, cho‘llanishga qarshi kurash, iqlim o‘zgarishi hamda ozon qatlamini muhofaza qilishga oid konvensiyalarida faol ishtirok etmoqda. Shuningdek, Orolbo‘yi mintaqasida ekotizimlarni tiklash va ekologik innovatsiyalarni joriy etishga qaratilgan BMT Bosh Assambleyasi rezolyusiyalari izchil amalga oshirilmoqda.

2016-yilda Chotqol davlat biosfera qo‘riqxonasi (Maydantol uchastkasi) hamda Ugam–Chotqol davlat biosfera rezervatining qo‘riqxonasi (Boshqizilsoy uchastkasi) YuNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritildi. 2021 yilda Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati YuNESKOning Butunjahon biosfera rezervatlari tarmog‘i ro‘yxatiga kiritildi.

Quyimozor va To‘dako‘l suv omborlari 2020-yilda, Sudoche ko‘llar tizimi esa 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro ahamiyatga ega suv-botqoqlik hududlari sifatida Ramsar konvensiyasi ro‘yxatiga kiritildi. 2023-yilda Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida bo‘lib o‘tgan YuNESKO Umumjahon merosi qo‘mitasining 45-kengaytirilgan yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasi tomonidan “Saygachiy” majmua buyurtma qo‘riqxonasi hamda “Janubiy Ustyurt” milliy tabiat bog‘i “Mo‘tadil mintaqadagi Turon cho‘llari” nomi ostida Umumjahon tabiiy merosi ob‘ektlari ro‘yxatiga kiritildi.

Qozog‘iston, Turkmaniston va Tojikiston bilan transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish masalalari ham ko‘rib chiqilmoqda. Jumladan, Surxon davlat qo‘riqxonasi joylashgan hududlarni Kuhitang tog‘i ekotizimlari sifatida Turkmaniston bilan hamkorlikda YuNESKOning Umumjahon tabiiy merosi ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha nomzodnoma tayyorlanmoqda [7].

2016-yilda bioxilma-xillik bilan bog‘liq muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning umumiy maydoni 2,011 mln gektarni yoki mamlakat hududining 4,64 foizini tashkil etgan edi. Vazirlar Mahkamasining “2019–2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida esa 2028-yil yakuniga qadar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini mamlakat hududining 12 foiziga yetkazish vazifasi belgilangan [8].

2019-yilda Xorazm milliy tabiat bog‘i, 2020-yilda “Janubiy Ustyurt” milliy tabiat bog‘i, 2021 yilda “Sudoche-Akpetki” davlat buyurtma qo‘riqxonasi, 2022 yilda “Oqtog‘-Tomdi” davlat qo‘riqxonasi, shuningdek “Markaziy Qizilqum”, “Yuqori To‘palang”, “Bobotog‘”, “Pop”, “Orolqum” va “Omonqo‘ton” milliy tabiat bog‘lari hamda “Borsakelmas” davlat buyurtma qo‘riqxonalari tashkil etildi.

2023-yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning umumiy maydoni 6,321 mln gektarga yetkazildi va ularning mamlakat hududidagi ulushi 14,08 foizni tashkil etdi.

2023-yilda qabul qilingan Yangi Konstitutsiyada O‘zbekiston xalqining tabiiy merosini asrab-avaylash majburiyati hamda tabiiy merosning davlat tomonidan muhofaza qilinishi qonuniy jihatdan kafolatlandi. Mazkur norma tarixiy, ma‘naviy, madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish hamda undan samarali foydalanish borasida davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlarini янада kengaytirishga asos bo‘ldi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini kengaytirish va shu orqali O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan o‘simliklar hamda hayvonot dunyosini saqlab qolish maqsadida qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, Samarqand viloyatida joylashgan Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududi 2 ming gektarga, Jizzax viloyatidagi Nurota davlat qo‘riqxonasi 4 ming gektarga, Surxondaryo viloyatidagi Surxon davlat qo‘riqxonasi hududi esa 5 ming gektarga kengaytirildi. Natijada ushbu hududlar bo‘yicha umumiy kengayish hajmi 11 ming gektarni tashkil etdi.

2024-yilda Farg‘ona vodiysida (Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari hududlarida) umumiy maydoni 100 ming gektardan iborat yangi tabiat bog‘ini tashkil etish rejalashtirildi. Ushbu loyiha amalga oshirilishi natijasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni 6,432 mln gektarga yoki mamlakat hududiga nisbatan 14,3 foizga yetkazilishi belgilandi.

Mamlakatda Orolbo‘yi mintaqasida ekologik barqarorlikni ta‘minlash maqsadida qator xalqaro tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Global yashil o‘shish instituti bilan hamkorlikda 2021–2024 yillarda Qoraqalpog‘iston hududlarining yashil tiklanishini moliyalashtirish loyihasi yo‘lga qo‘yildi. Loyiha doirasida Orol tanazzulining kompleks muammolarini bartaraf etish, aholining ekologik ofatlarga bardoshlilikini oshirish hamda barqaror ishbilarmonlik imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada eng ko‘p zarar ko‘rgan hududlarda 113 ming nafar aholining turmush sharoitiga moslashuviga ko‘maklashish, 1 587 nafar fermer va tadbirkorning agrobiznes modellarini rivojlantirish hamda 500 ga yaqin kichik va o‘rta korxonalarini tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, “Orolbo‘yi suv-botqoq, ko‘llar va o‘tloq yerlar ekotizimlarini muhofaza qilish” loyihasi doirasida 2,4 mln gektar maydonda yangi tashkil etilgan beshta muhofaza etiladigan tabiiy hudud qo‘llab-quvvatlanib, o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilishning hududiy tizimi kuchaytirilmoqda.

Bundan tashqari, 2020-yilda BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda “Yashil Orol – yashil Orol dengizi” kraudfanding tashabbusi amalga oshirildi. Ushbu tashabbus doirasida Orol dengizining qurib qolgan tubida 34 mingdan ortiq daraxt ko‘chatlari ekilishi ta‘minlandi.

Orolning qurigan o‘zanida madaniy o‘rmonzorlar barpo etish jarayonida chorvachilik uchun zarur yangi yaylovlarni tashkil etish masalasiga ham alohida e‘tibor qaratildi. Xususan, 2019-yilning kuzgi va 2020-yilning bahorgi mavsumlarida 706 241 gektar maydonda fitomeliorsiya ishlari olib borildi hamda 166,2 ming gektar maydonda madaniy o‘rmonzorlar tashkil etildi. Bundan tashqari, 3 014 gektar yer maydonida chorvachilik uchun sun‘iy yaylovlar yaratildi [9, B. 280].

2018–2023 yillar qish-bahor mavsumlarida jami 1,7 mln gektardan ortiq maydonlarda saksovul va boshqa cho‘l o‘simliklaridan yangi o‘rmonzorlar barpo etildi. Ushbu ishlarni amalga oshirish uchun qariyb 7 ming tonna cho‘l o‘simliklari urug‘lari sarflandi. Bundan tashqari, Orol dengizi tubida 2022–2026 yillarda 500 ming gektar, jumladan joriy yilda 100 ming gektar maydonda “yashil qoplamalar”, ya’ni himoya o‘rmonzorlari barpo etilishi belgilangan. Mazkur ishlarni davom ettirish maqsadida 2024-yilda 112,5 ming gektar maydonga saksovul va qandim kabi suv tanqisligiga chidamli o‘simliklar ekildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat o‘rmon xo‘jaliklari tomonidan esa 5 ming gektar maydonda 5 mln dona ko‘chatdan “yashil qoplamalar” barpo etildi [10].

“Orolbo‘yi suv-botqoq, ko‘llar va o‘tloq yerlar ekotizimlarini saqlash va ulardan barqaror foydalanish” loyihasi Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2 mln 400 ming gektardan ortiq maydonda yangi tashkil etilgan beshta muhofaza etiladigan tabiiy hududni qo‘llab-quvvatlash hamda barcha turdagi hayvonot va o‘simlik dunyosini muhofaza qilishning hududiy mexanizmini ta‘minlashga qaratilgan [1, B. 13].

Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi nafaqat ekologik, balki huquqiy va ijtimoiy mas’uliyat sifatida ham qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarni rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmonida atrof-muhitni muhofaza qilishga doir aniq vazifalar belgilangan. Jumladan, shahar va tuman markazlarida yashillik darajasini 30 foizga yetkazish, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yashil hududlarni 4,4 kvadrat metrgacha oshirish hamda 14 ta ekologik toza hudud rejimini joriy etish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, ifloslanish xavfi yuqori bo‘lgan obyektlarda avtomatik nazorat tizimlarini joriy etish, daraxt va butalarning ko‘karuvchanlik darajasini 70 foizga yetkazish, respublika bo‘ylab yashil bog‘ va parklar sonini 1 023 taga yetkazish rejalashtirilgan. Ushbu vazifalar nafaqat ekologik barqarorlikni ta‘minlash, balki aholining sog‘lom muhitda yashash huquqini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Strategiyada “yashil belbog‘lar” barpo etish, Toshkent shahrida 4 450 gektar yangi yashil maydon yaratish, o‘rmon bilan qoplangan hududlarni 6,1 mln gektarga yetkazish kabi yirik loyihalar ham nazarda tutilgan. Orol dengizining qurigan tubida va cho‘l hududlarda 1,3 mln gektar qo‘shimcha “yashil qoplamalar” barpo etilishi ekologik xavfsizlikni mustahkamlash yo‘lidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi [2].

Xulosa. O‘zbekistonda tabiiy hududlar muhofazasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda qo‘riqxonalar va milliy tabiat bog‘lari tizimini kengaytirish, “Yashil makon” dasturi doirasida keng ko‘lamli yashillantirish ishlari olib borish hamda Orolbo‘yi mintaqasida ekotizimlarni tiklashga qaratilgan tashabbuslar ekologik xavfsizlikni ta‘minlash yo‘lidagi muhim chora-tadbirlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu sa’y-harakatlar bioxilma-xillikni saqlash, tabiiy resurslardan barqaror foydalanish va aholining ekologik farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Biroq tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, suv tanqisligi, sanoat va infratuzilma bosimining kuchayishi kabi muammolar hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Shu bois, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, ekologik qonunchilikni izchil amalga oshirish, milliy va xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlash, shuningdek aholining ekologik madaniyatini oshirish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Innovatsion yondashuvlar va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish esa tabiiy hududlar muhofazasining samaradorligini oshirish hamda barqaror rivojlanishni ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atrof-muhit holati to‘g‘risida milliy ma’ruza: O‘zbekiston. Toshkent: Barqaror rivojlanish xalqaro instituti, 2023.

2. Abdullayev J. Yashil kelajak strategiyasi — ekologik barqaror taraqqiyot yo‘li. 19.02.2026 // www.parliament.gov.uz
3. Abduganiev O., Madraximov A. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning asosiy toifalari va tasniflari // Academic Research in Educational Sciences. Vol. 3, Issue 10, 2022. - B. 136-143
4. Davletov S.R. Environmental issues in Uzbekistan at the modern stage of development // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 10 Issue 5, May 2020. - P. 1775-1780.
5. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi holat qanday? 23 iyun 2021. // www.yuz.uz
6. Po‘latov B. Endi tabiiy meros ham davlat tomonidan muhofaza qilinadi. // www.yuz.uz
7. O‘zbekistonda to‘liq davlat muhofazasiga olingan hududlar bormi? 4 oktyabr 2023. // www.yuz.uz
8. O‘zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar 12 foizgacha kengaytiriladi. 15 Iyun 2021. // www.xs.uz
9. Yangi Mo‘ynoq. Toshkent: Ma’naviyat, 2023. – B. 280.
10. Orol dengizi va Yangi O‘zbekiston tajribasi. 19.11.2024 // www.m.xabar.uz

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].